



TURKON XOTUN - “OLAM AYOLLARINING MALIKASI”

Jo'raboyeva Aziza Ikrom qizi

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Tarixdan ma'lumki, ayollar har qanday davrda davlat boshqaruviga oz bo'lsada o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Ba'zida ular ta'sir o'tkazgan davlat goh yuksalgan, goh inqirozga yuz tutgan. Ushbu maqolada buyuk Xorazmshohlar Alouddin Muhammadning validayi muhtaramasi Turkon Xotunni shaxsiga ta'rif, uning faoliyati, davlat boshqaruvidagi o'rni haqida bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, hurmat-ehtirom, malikai jahon, qo'sh hokimiyatchilik, sinchkovlik, adolat

Jamiyatning yaxshi yoki yomon tarafga qarab ketishida ayollar katta rol o'ynaydi. Farzandlar ko'p vaqtini onasi bilan o'tkazadi va shuningdek bizning jamiyatimizda tarbiyaning katta qismini onalardan olishadi. Bugungi kunda ayollarimiz ilm olishi uchun judayam katta imkoniyatlar berilmoqda. Ulamolarimiz aytganidek, ilmni avvalo ayollar egallashi kerak. Ayol o'qimishli bo'lsa, millatni tarbiyalaydi. Xonliklar davrida diniy mutaasiblik shunchalik kuchli ekanligidan ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni deyarli bo'lmagan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk o'rta asrlardagi Choch davlatida malika hatto bosh vazir darajasigacha ko'tarilgan. Hatto Amir Temurning suyukli rafiqasi Bibixonim ham Sohibqiron harbiy yurishlarda bo'lgan vaqtida saroydagi vaziyatni o'z qo'lga ola bilgani tarixiy manbalarda keltirilgan.

Davlat siyosiy hayotiga hissa qo'shgan ayollar haqida so'z boshlar ekanmiz so'z boshini Xorazmshohlar davlati siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan malika, Sulton Alouddin Muhammadning onasi, qipchoq oqsuyaklaridan bo'lgan Turkon Xotun bilan boshlasak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shihobiddin an-Nasaviy uni ta'riflab shunday yozadi: “U Bayot urug'idan edi. Bayot urug'ining Emek qabilasiga mansub hisoblanadi. Uning ishi yurishib turk mamlakatlaridan birining hukmdori Jonkishixonning qizi edi. El-Arslonning o'g'li Takish hukmdorlarning o'g'li hukmdorlarni qizini olgani kabi unga uylandi. Hokimiyat sulton Muhammadga otasi Takishdan meros bo'lib o'tganidan keyin Emek va unga qo'shni bo'lgan qo'shni qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo'shildilar. Shu sababli sultonning kuchi ko'paydi, u esa ularni yanada ulug'ladi.



Natijada Turkon xotun mamlakatni boshqara boshladi. Sulton qaysidir mamlakatni bosib olgudek bo'lsa, uning qaysidir viloyatini onasining yaqinlari uchun ajratib beradi"[Shihobiddin an- Nisoviy. 384 b.].

An-Nasaviy uning fe'l-atvori xususida shunday yozadi: "U aqlli ayol edi. Unga shikoyat xatlari, arznomalar kelgudek bo'lsa, ularni sinchikovlik bilan adolat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqardi va jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odam tarafini olardi. Ammo u qotillikni mardlik nishonasi deb baholardi. U mamlakat uchun ko'plab yaxshi ishlar qildi. Turkon Xotun ulug'vor, oqila ayol edi, u mamlakat uchun ko'p hayrli ishlar qildi. Uning ulug' ishlari ichidan ko'rganlarimizni birma-bir sanaydigan bo'lsak, so'zimiz cho'zilib ketaveradi" [Shihobiddin an-Nisoviy. 386-387 b.].

Sulton Muhammadning hukmronligi davrida Turkon Xotun saltanat ishlarida yetakchi mavqeyini egallagan, uning farmoyishlari o'g'li tomonidan so'zsiz bajarilgan. "Anushtegin Xorazmshohlar davlati" asarida shunday ta'kidlanadi: "Sulton Alouddin Muhammad mutlaq hukmdor hisoblansada, aslida o'z onasi Turkon Xotunning to'la itoatida edi"[Buniyodov Z. 256 b.].

"Olam ayollarining malikasi" deya shuhrat topgan volidai muhtaramani hurmat qilmay bo'ladimi? Shu sababli Xorazmshohning onaga munosabatini itoat emas, hurmat va ehtirom deb tushinish to'g'riroq bo'lar edi. Turkon Xotun o'g'liga shu darajada ta'sir o'tkazganki, natijada Xorazmshoh Muhammad mamlakat ichkarisidagina emas, balki xalqaro maydonda ham Xorazmning yagona hukmdori sifatidagi rolini boy berdi. Uning obro'si tushishiga yana bir sabab qilib Alouddin Muhammad mastligida onasining xiyonati tufayli shayx Najmiddin Kubroning shogirdi shayx Majiddin Bag'dodiyning qatl qilinishini ko'rsatishimiz mumkin. Bu voqea natijasida din ulamolarining Xorazmshohdan ixlosi qaytgan.

An-Nasaviy yozishicha: "Agar malika va Xorazmshohdan bir ish haqida ikki ta ko'rsatma kelsa, u holda barcha mamlakatlarda Turkon Xotun bergan ko'rsatma bo'yicha ish tutilardi". Turkon Xotunning hattoki shaxsiy muhri bo'lib, unga "Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn" ("Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi") deb bitilgan edi. U o'z shiori "I'tasamtu billahi" ("Faqat Allohdan himoya kutaman")ni o'g'lining shiori yoniga qo'yar edi [www.xorazmiy.uz. internet sayti].

Xorazmshoh 1216-yilda onasining shayxini qatl qildirdi. Bu ona va o'g'ilning raqobati mug'ullar bosqini davrida davlatni ich-ichidan nuratayotgan edi. Xorazmshohlar davlatini Urganchda – Turkon xotun, Samarqandda – Sulton Muhammad boshqaradi va shu tariqa, mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga



keladi. Bizga ma'lumki ko'pgina davlatlar ham parchalanib ketishiga sabab, qo'shhokimyatchilikdir [www.oyina.uz. internet sayti]. Xorazmshohlar davlati tirgaklariga ham ayni shu sabab tufayli shikast yetdi. Lashkarlar, sarkardalar, davlat arkonlari o'rtasida ziddiyat avj oladi, qabilalar, urug'lar o'rtasidagi yakdillik yo'qoldi. Bu esa o'z navbatida, mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatini bosib olishiga xizmat qildi.

1220-yilda Xorazm mug'ullar hujumiga uchragandan so'ng, Sulton Alouddin Muhammad Kaspiy dengizining Ashura oroliga qochishga majbur bo'ldi. Sulton xotinlari, farzandlari va boshqa qimmatbaho buyumlarini olib Gurganchni tark etgan.

Turkon Xotun esa shaharda qolgan barcha sultonlar, hokimlar va ularning o'g'illarini, jami 26 kishini qatl qildirdi ya'ni Amudaryoga cho'ktirib yubordi. Bularning orasida Sulton To'g'rul as-Saljuqiyning o'g'li, Balx maligi Imodiddin, uning o'g'li, Yermiz hukmdori al-Malik Bahromshoh, Bomiyon hukmdori Alovuddin, Vaxsh hukmdori Jamoliddin Umar, Sig'noq hukmdorining ikki o'g'li, Burhoniddin Muhammad Sadr Jahon, uning ukasi Iftixor Jahon va ikki o'g'li Malik al-Islom, Aziz al-Islom hamda yana boshqalar bor edi. Bunday sharmandalik Turkon Xotundan ko'pchilik tarafdorlarni yuz o'girishiga sabab buldi. U faqat o'z xizmatkorlari va vazir Muhammad Solih hamda yo'lboshlovchi Umar hamrohligida qochib ketishga muvaffaq bo'ldi. Biroq noshukur malika Mozandaronga yetgach, yo'lboshlavchini ham qatl ettiradi [www.in-academy.uz. internet sayti].

Chingizxon askarlari Turkon Xotunning izida borib uni qo'lga tushiradilar. Malika Xorazmshohning butun xarami va bolalari bilan asir tushadi. Mug'ullar shoh bolalarini o'ldirib, haram ayollarini o'zlariga xotin qilib oladilar. Turkon Xotun esa Chingizxon qarorgohiga jo'natiladi. Uning asirlikdagi ahvoli juda og'ir bo'lgan. Chingizxon dasturxonidan qolgan sarqitlar bilan ovqatlanardi. Bir paytlar har qanday farmoyishi darhol bajarilgan malikai jahon Turkon Xotun 1233-yili xor-u zorlikda vafot etadi [Buniyodov Z. 256-257 b.].

Ko'rib turibmizki, O'zingniki o'zagingni qirqadi deb bekorga aytishmagan otabobolarimiz. Alouddin Muhammad ham mudofaani tashkil etish o'rniga davlatni tashlab qochib ketdi, bu ham yetmaganidek o'zini "hukmdor" hisoblagan Turkon xotun ham Xorazmni o'z holiga tashlab ketdi. Qochib ketishi bilan bir qatorda, buyuk zotlarni, hukmdor farzandlarini qatl ettirib, poytaxtni ularning qoniga "botirib ketdi".

Ming afsuski "ikki olam malikasi" nomlari bilan mashhur bo'lgan malika mo'g'ul qo'liga asir tushdi. Jaloliddin oldiga borishni o'ziga or bildi. Taqdirni qarangki Malikai jahon, Sulton onasi Chingizxonning dasturxoniga qaram bo'lib qoldi. Shunday qilib, "Ismat ud-Dunyo", olam ayollarining malikasi – Turkon xotun



ko'pchilik nigohida Xorazmshohlar davlatining tanazzuliga sababchi bo'lgan shaxs sifatida tarix zarvaraqlarida qoldi. Mening fikrimcha hammasini yaxshilikka yo'yish lozim. O'tmishdagi hukmdorlarimizning siyosatdagi xatolari bo'lmaganida, hozir rivojlangan davlatlar qatorida bo'larmidek.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). A. Ahmad va M. Mahmud tarjimasi. Toshkent. 1998.

2. Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti). Kamol Matyoqubov tarjimasi. Toshkent. 2006.

3. www.xorazmiy.uz. internet sayti
4. www.in-academy.uz. internet sayti
5. www.oyina.uz. internet sayti